


2021- yilning yanvar oyida Farg'ona viloyatida qurilish ishlari.

Joriy yilning yanvar oyida Farg'ona viloyatida jami **387,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **104, 6 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 270 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 363 taga ko'paygan.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **113,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **55,4 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **110,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **10,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **111,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **34,0 %**) o'sishidir.




Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.02.2020- yil	01.02.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	2907	3270	112,5
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	780	879	112,7
	Qo'qon	299	322	107,7
	Quvasoy	102	118	115,7
	Marg'ilon	282	344	122,0
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	92	113	122,8
	Qo'shtepa	97	102	105,2
	Bag'dod	151	157	104,0
	Buvayda	121	133	109,9
	Beshariq	75	83	110,7
	Quva	135	141	104,4
	Uchko'prik	155	175	112,9

	Rishton	64	71	110,9
	So'x	32	43	134,4
	Toshloq	118	132	111,9
	O'zbekiston	79	87	110,1
	Farg'ona	76	97	127,6
	Dang'ara	117	123	105,1
	Furqat	64	74	115,6
	Yozyovon	68	76	111,8


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.02.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, %da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona (26,8 %), Marg'ilon (10,5 %) va Qo'qon (9,8 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **5,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **106,6** %ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ko'rsatkich o'zgarmadi va **1,5** %ni tashkil etdi.


2021- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Beshariq tumanida jami qurilish ishlari hajmining **19,0 %** i yoki 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **87,0 m.**, Qo'shtepa tumani jami qurilish ishlari hajmining **3,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **72,0** martta, va Qo'qon shahri jami qurilish ishlari hajmining **5,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,3 %** ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,9 % i to'g'ri kelib, 2020 - yilning yanvar oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 5,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020 - yilning mos davriga nisbatan 99,4 % ni tashkil etgan holda 271,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **7,8** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **379,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 %**ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 60,7 %i yoki **235,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

60,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **5,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,5 %ni tashkil etdi

2,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **131,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,1 %ni tashkil etdi.

56,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **97,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 41,5 %ni tashkil etdi.

41,4 %



**2021- yil yanvar oyida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	387,5	104,6	235,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	107,1	119,4	46,9
Qo'qon	35,1	102,8	17,4
Quvasoy	15,7	53,3	13,1
Marg'ilon	22,4	76,2	34,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	11,0	89,9	5,4
Qo'shtepa	27,3	151,9	7,0
Bag'dod	52,3	107,2	18,9
Buvayda	16,8	168,0	5,1
Beshariq	8,7	82,6	24,1
Quva	10,7	110,1	13,0
Uchko'prik	6,5	75,3	3,3
Rishton	5,4	123,1	3,2
So'x	7,0	127,4	1,1
Toshloq	15,4	166,2	5,8
O'zbekiston	9,8	156,1	9,8
Farg'ona	1,1	13,5	2,4
Dang'ara	21,7	110,3	11,8
Furqat	10,2	78,7	8,9
Yozyovon	3,3	69,0	3,1

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



2020- yil
yanvar



2021- yil
yanvar

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,0 %**ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **2,7 %** punktga kamayib, **64,5 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **2,5 %** punktga kamayib, **34,5 %**ni tashkil etdi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,3 %**ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **3,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **97,1 %** (**2,5 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,6 %** (**0,6 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

■ 2020 yil yanvar


■ 2021 yil yanvar



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi va **5,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **94,1 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **1,0 %** punktga kamaydi.

ulushi, %da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

mlrd. so'm

Farg'ona sh.
107,1

Marg'ilon sh.
22,4

Qo'qon sh.
35,1

Bag'dod t.
52,3



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (107,1 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (22,4 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (35,1 mlrd. so'm) va Bag'dod (52,3 mlrd. so'm) tumaniga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Ijr : O'.Umarov
Tel.: (73) 249-87-26
(73)-241-98-42